

O‘zbekiston Respublikasi
sport vazirining
2024-yil “_____”-sentabrdagi
_____A/F-sonli buyrug‘iga
1-ilova

Sport vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashi to‘g‘risida NIZOM

1-bob. Umumiy qoidalar

1. Mazkur nizom O‘zbekiston Respublikasi Sport vazirligi (keyingi o‘rinlarda – Vazirlik) huzuridagi Jamoatchilik kengashining (keyingi o‘rinlarda – Jamoatchilik kengashi) asosiy vazifalari, funksiyalari, vakolatlarini va faoliyatini tashkil etish tartibini belgilaydi.

2. Jamoatchilik kengashi o‘z ishini jamoatchilik asosida olib boradigan, doimiy faoliyat yurituvchi maslahat-kengash organi hisoblanadi.

3. Jamoatchilik kengashi Vazirlik huzurida tashkil etiladi.

4. Jamoatchilik kengashi Sport vazirining (keyingi o‘rinlarda – vazir) buyrug‘i bilan tashkil etiladi.

5. Jamoatchilik kengashining qarorlari tavsiyaviy xususiyatga ega.

6. Jamoatchilik kengashi o‘z faoliyatida O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlariga, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlariga, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlariga, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlariga, Vazirlik buyruqlariga, mazkur Nizomga hamda boshqa qonunchilik hujjatlariga amal qiladi.

A’zolarining Jamoatchilik kengashining maqsadi va asosiy vazifalari doirasidan chetga chiqib, Jamoatchilik kengashi Vazirlik bilan kelishmagan holda, bildirgan fikr-mulohazalari hamda sodir etgan hatti-harakatlari Jamoatchilik kengashining nuqtai-nazarini anglatmaydi.

7. Jamoatchilik kengashi to‘g‘risidagi Nizom va unga kiritiladigan o‘zgartirishlar hamda qo‘srimchalar Vazir buyrug‘i bilan tasdiqlanadi.

2-bob. Jamoatchilik kengashining maqsadi, asosiy vazifalari, funksiyalari, huquqlari va majburiyatları

8. Jamoatchilik kengashining asosiy maqsadi Vazirlik va jamiyat o‘rtasida ta’sirchan hamda samarali muloqotni yo‘lga qo‘yish, Vazirlik faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirishdan iborat.

9. Quyidagilar Jamoatchilik kengashining asosiy vazifalari hisoblanadi:

- a) Vazirlik tomonidan tayyorlangan yarim yillik va yillik hisobotlarni ko‘rib chiqish;
- b) O‘zbekiston Respublikasida sport sohasida amalga oshirilayotgan ishlarni tizimli tahlil qilish doirasida Vazirlik tomonidan ishlab chiqilgan va qo‘llanilayotgan metodologiyalarga ekspert baholashni tashkillashtirish;
- d) sport sohasini rivojlantirish rejali, strategiyalari, shuningdek Vazirlik tomonidan qabul qilingan buyruqlarni mustaqil monitoring qilish va ularning ta’sirini baholashni tashkil etish;
- e) O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror, farmoyishlari, huzurida o‘tkazilgan hamda hududlarga tashrif yakunlari bo‘yicha yig‘ilish bayonlarida berilgan topshiriqlar ijrosini vazirlikda, shuningdek hududiy tuzilmalarda ijro etilishini monitoring qilib borish;
- f) jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari bo‘yicha o‘tkazilgan o‘rganishlarni haqqoniyligiga baho berib borish;
- g) fuqarolik jamiyati institutlari, sport turlari bo‘yicha federatsiyalar va nodavlat notijorat tashkilot vakillarining sport sohasida olib borilayotgan strategiyalar to‘g‘risida bildirilgan fikr-mulohazalarini to‘plash yoki jamlash, mazkur siyosatning ta’siri, jumladan, sport sohasi bo‘yicha to‘siqlarni keltirib chiqaradigan samarasiz chora-tadbirlarni aniqlashga alohida e’tibor berish;
- h) sport yo‘nalishidagi targ‘ibotga ko‘maklashish va unda fuqarolik jamiyati institutlarining ishtirokini muvofiqlashtirish;
- i) Jamoatchilik kengashlarining tartib-qoidalarini takomillashtirish yuzasidan ilg‘or tajriba asosida tavsiyalar ishlab chiqish;
- j) boshqa Jamoatchilik kengashlari tomonidan sport sohasidagi qonunchilik tahlilini muvofiqlashtirish va mazkur masalada Vazirlik bilan birgalikda ishlash;
- k) fuqarolik jamiyati bilan bog‘liq loyihalarni monitoring qilish;
- l) Vazirlik faoliyati to‘g‘risida jamoatchilik fikrini kuzatib borish va tahlil qilish;
- m) Vazirlik faoliyatining shaffofligini monitoring qilish;
- n) fuqarolarni Vazirlikning islohotlarida ishtirokini monitoring qilish;
- o) Vazirlikning normativ-huquqiy faoliyatini monitoring qilish, Vazirlik tomonidan ishlab chiqilgan normativ hujjatlarni jamoatchilik uchun ochiqligini ta’minalash;
- p) Jamoatchilik kengashlari va boshqa fuqarolik jamiyati institutlari bilan normativ-huquqiy hujjatlar va ularning loyihalari bo‘yicha nazorat qiluvchi organlarning shaffofligi va hisobdorligini ta’minalash ishlarini muvofiqlashtirish;
- q) Vazirlikning ochiqligi, shaffofligi va qonun ijodkorligida jamoatchilik ishtirokini oshirish uchun Vazirlikka sport sohasi to‘g‘risidagi qonunchilikni ko‘rib chiqish, unga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish hamda yangi qarorlar qabul qilishni taklif etish;

r) boshqa vazirlik va davlat idoralarining jamoatchilik kengashlari bilan monitoring qilish va kuzatish sohasida tajriba almashish;

s) birgalikda muloqot qilish, Vazirlikning nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan samarali hamkorligini ta'minlash uchun Vazirlikni fuqarolar bilan bog'lab turadigan "ko'pri" rolini bajarish.

10. Jamoatchilik kengashi o'z zimmasiga yuklatilgan vazifalarga muvofiq quyidagi funksiyalarni bajaradi:

a) Vazirlikning faoliyatiga doir masalalar yuzasidan fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining tashabbuslari hamda murojaatlarini ko'rib chiqishda ishtirok etadi, shuningdek ularni ko'rib chiqish natijalari bo'yicha Vazirlikka tegishli takliflar kiritadi;

b) Vazirlikning fuqarolar, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari bilan o'zaro hamkorligini tahlil qiladi, shuningdek hamkorlikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

d) Vazirlik faoliyatiga taalluqli uning normativ-huquqiy hujjatlari va boshqa hujjatlarni takomillashtirish, ulardagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqadi, shuningdek kiritilgan takliflarni Vazirlik xodimlari o'rtasida muhokama qilishga bag'ishlangan tadbirlarni tashkil etishda qatnashadi;

e) Vazirlik rahbarlari va xodimlarining fuqarolar bilan uchrashuvlarini, shuningdek jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarini ko'rib chiqish bilan bog'liq ishlarni tashkil etishda, shu jumladan joylarga borib tashkil etishda qatnashadi, ularning amalga oshirilishi ustidan monitoring o'tkazadi;

f) Vazirlik faoliyatiga bag'ishlangan konferensiylar, seminarlar, davra suhbatlarini tashkil etishda ishtirok etadi;

g) Vazirlik faoliyatini ommaviy axborot vositalarida yoritish bo'yicha bajarilayotgan ishlarning natijalarini tahlil qiladi, ularning samaradorligini oshirish va mavjud kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi;

h) o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajarishda nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari hamda fuqarolar bilan hamkorlik qiladi.

11. Jamoatchilik kengashi zimmasiga yuklatilgan vazifalar va funksiyalarni bajarish uchun:

a) Vazirlik tomonidan tashkil etiladigan navbatdagi majlislar va boshqa ommaviy tadbirlar to'g'risidagi axborotni oldindan olish hamda mazkur tadbirlarda ishtirok etish;

b) Vazirga Jamoatchilik kengashi vakolatiga kiradigan masalalar yuzasidan takliflar kiritish;

d) Vazirlik faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish uchun zarur bo'lgan Vazirlikning axborotlari, statistika va boshqa materiallarini belgilangan tartibda olish;

e) Vazirlik tomonidan ishlab chiqilgan normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarining jamoatchilik va ekspertlar muhokamasini ta'minlashda ishtirok etish;

f) jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlariga Vazirlik tomonidan berilgan javoblarning sifatini tanlab olgan holda tahlil qilish;

g) Jamoatchilik kengashi majlislarida muhokama qilinadigan masalalarni yoritish bo'yicha ommaviy axborot vositalari bilan hamkorlik qilish;

h) yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun konferensiyalar, forumlar, seminarlar, davra suhbatlari va boshqa tadbirlarni tashkil etish huquqiga ega.

Jamoatchilik kengashi qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa huquqlarga ham ega bo'lishi mumkin.

12. Jamoatchilik kengashi o'z faoliyatini amalga oshirishda:

a) jamoatchilik nazorati to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari talablariga rioya qilishi;

b) Vazirlik faoliyati bilan bog'liq qonunchilik hujjatlarida belgilangan cheklowlarga amal qilishi;

d) Vazirlik xodimlarining o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradigan faoliyatiga aralashmasligi;

e) Vazirlik xodimlari faoliyat ko'rsatishi uchun to'sqinlik qilmasligi;

f) fuqarolarning or-nomusi va qadr-qimmatini tahqirlashga, ularning shaxsiy hayotiga aralashishga yo'l qo'ymasligi;

g) jismoniy va yuridik shaxslarning sport sohasida tasdiqlanmagan ma'lumotlarni tarqatmasligi hamda aybsizlik prezumpsiyasi prinsipiiga amal qilishi;

h) jamoatchilik nazoratini amalga oshirish davomida olingan axborotning, agar bunday axborotni tarqatish qonun bilan cheklangan bo'lsa, maxfiyligiga rioya qilishi shart.

Jamoatchilik kengashining zimmasida qonunchilik hujjatlariga muvofiq boshqa majburiyatlar ham bo'lishi mumkin.

Yuqorida talablarni bajarish Jamoatchilik kengashi tarkibiga kiruvchi barcha shaxslar uchun majburiydir.

3-bob. Jamoatchilik kengashi tarkibini shakllantirish va ishini tashkil etish tartibi

13. Jamoatchilik kengashining tarkibiga uning raisi, rais o'rinosari, kotibi va a'zolari kiradi.

14. Jamoatchilik kengashi a'zoligiga, qoida tariqasida, Vazirlikda namunali xizmat ko'rsatgan xodimlar, jamoatchilik faoliyati sohalarida katta amaliy tajribaga ega obro'-e'tiborli fuqarolar, shuningdek nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari vakillari qabul qilinadi.

15. Jamoatchilik kengashi umumiy a'zolarining soni 15 nafardan kam bo'lmasligi hamda 35 nafardan ortiq bo'lmasligi lozim.

16. Jamoatchilik kengashining tarkibi Jamoatchilik palatasi bilan kelishilgandan so'ng Vazir buyrug'i bilan har 2 (ikki) yilda tasdiqlanadi.

Jamoatchilik kengashining vakolat muddati yakunlanganidan so'ng o'z faoliyatini tugatadi.

17. Jamoatchilik kengashining tarkibining kamida 50 foizini nodavlat notijorat tashkilotlari vakillari tashkil etadi.

18. Jamoatchilik kengashining raisi fuqarolik jamiyati institutlari vakillari orasidan tasdiqlanadi.

Jamoatchilik kengashining rais o'rribosari, kotibi Vazir tavsiyasiga asosan, jamoatchilik kengashining a'zolari orasidan saylanadi.

Saylangan rais, rais o'rribosari, kotibi vakolat muddati Jamoatchilik kengashi a'zolari tomonidan belgilanadi.

19. Quyidagi holatlarda jamoatchilik kengashining raisi, rais o'rribosari, kotibi va a'zolari uning tarkibidan chiqarilishi mumkin:

a) kengashi tarkibidan chiqish to'g'risida ariza bilan murojaat qilganida;

b) huquqbuzarlik, shuningdek jamiyatda o'rnatilgan axloq qoidalari, hamda umum e'tirof etilgan normalarni qo'pol ravishda buzuvchi va kengash a'zosi nomiga dog' tushiruvchi hamda Jamoatchilik kengashi obro'siga putur yetkazuvchi harakatlar, nojo'ya ishlar sodir etganda;

d) Nizomda nazarda tutilgan o'z vazifalarini uzrli sabablarsiz muntazam ravishda, bajarmaganda, shu jumladan Jamoatchilik kengashning majlislarida faol ishtirok etmaganda;

e) vafot etganda, shuningdek sudning qonuniy kuchga kirgan hal qiluv qarori asosida ular muomalaga layoqatsiz, bedarak yo'qolgan yoki vafot etgan deb topilganda;

f) mazkur nizomning 11-bandida belgilangan majburiyatlarni bajarmaganda.

20. Jamoatchilik kengashining tarkibi to'g'risidagi ma'lumotlar va unga kiritilgan o'zgartirishlar ular tasdiqlangan paytdan boshlab 5 (besh) kun ichida Vazirlikning rasmiy veb-saytida e'lon qilinadi.

21. Jamoatchilik kengashining raisi:

a) Jamoatchilik kengashining faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi;

b) Jamoatchilik kengashining majlislarini chaqiradi va kun tartibini belgilaydi;

d) Jamoatchilik kengashining majlislarida raislik qiladi;

e) Jamoatchilik kengashining ish rejasini, majlisi bayonnomasini va boshqa hujjatlarini tasdiqlaydi;

f) Jamoatchilik kengashi qarorlarining ijrosini nazorat qiladi;

g) Jamoatchilik kengashi a'zolarining zimmasiga yuklatilgan vazifalarning bajarilishini muvofiqlashtiradi;

h) Vazirlikning rasmiy veb-saytida va boshqa platformalarda joylashtiriladigan jamoatchilik kengashining faoliyati to‘g‘risidagi ma’lumotlar tarkibi bo‘yicha takliflar kiritadi va uni Vazir bilan kelishadi;

i) Jamoatchilik kengashi qarorlarini bajarish masalalari yuzasidan Vazirlik rahbariyati bilan hamkorlik qiladi.

Jamoatchilik kengashining samarali ishini ta’minalash bo‘yicha boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

22. Jamoatchilik kengashining raisi bo‘lmagan taqdirda, uning vakolatlari va majburiyatlarini rais o‘rbinosari bajaradi.

23. Jamoatchilik kengashi raisining o‘rbinosari:

a) rais yo‘qligida jamoatchilik kengashining majlislarida raislik qiladi;

b) Jamoatchilik kengashi qarorlarining ijrosini nazorat qilish bo‘yicha ishlarni tashkil etadi;

d) fuqarolarni va yuridik shaxslarning vakillarini qabul qiladi, shuningdek jamoatchilik kengashi faoliyatiga taalluqli murojaatlarni ko‘rib chiqish bo‘yicha ishlarni tashkil etadi;

e) Jamoatchilik kengashi ishini samarali tashkil etish bo‘yicha boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

24. Jamoatchilik kengashining kotibi:

a) Jamoatchilik kengashi faoliyatini uslubiy, tashkiliy-huquqiy va tashkiliy-texnik jihatdan ta’minalash masalalarini hal qiladi;

b) Jamoatchilik kengashining navbatdagi majlisiga barcha zarur materiallar o‘z vaqtida tayyorlanishini ta’minalaydi, Vazirlik xodimlaridan zarur hujjatlar va ma’lumotlarni so‘rab oladi;

d) kun tartibiga muvofiq Jamoatchilik kengashi majlislari o‘tkazilishini tashkil etadi;

e) Jamoatchilik kengashi o‘tkaziladigan sana, joy va taklif etiladigan shaxslar ro‘yxatini jamoatchilik kengashining raisi bilan kelishadi;

f) Jamoatchilik kengashi a’zolarini va taklif etilgan shaxslarni jamoatchilik kengashi majlisini o‘tkaziladigan joy, sana va vaqt haqida xabardor qiladi;

g) Jamoatchilik kengashi qarorlarining ijro etilishi ustidan monitoring olib boradi va uning natijalarini jamoatchilik kengashi majlisida ko‘rib chiqish bo‘yicha takliflar kiritadi;

h) Jamoatchilik kengashi majlisining bayonnomasini rasmiylashtiradi va tasdiqlangan bayonnomaning Jamoatchilik kengashi a’zolari hamda boshqa manfaatdor shaxslarga jo‘natilishini ta’minalaydi;

i) Jamoatchilik kengashining yig‘ilishlari va kun tartibidagi masalalar to‘g‘risidagi ma’lumotlarni Vazirlikning rasmiy veb-saytida e’lon qilish uchun Vazirlikka taqdim etadi.

Jamoatchilik kengashining samarali ishlashini ta’minalash bo‘yicha boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

25. Jamoatchilik kengashining a'zolari o'z majlislarida ko'rib chiqiladigan masalalarni muhokama qilish va hal qilishda o'z vakolatini boshqalarga o'tkazish huquqiga ega emas.

Jamoatchilik kengashining majlisida ishtirok etish imkonini bo'lмаган holatlarda, uning a'zosi majlis kun tartibidagi masalalar bo'yicha o'z fikrini yozma shaklda yuborishi mumkin. Bunda uning fikri majlisda ko'rib chiqiladi va ovoz berishda hisobga olinadi.

26. Jamoatchilik kengashining a'zolari:

a) o'z zimmalariga yuklatilgan vazifalarni bajarish uchun Vazirlik tomonidan tashkil etiladigan hay'at majlislarida va boshqa ommaviy tadbirlarda ishtirok etadi;

b) Jamoatchilik kengashi ish rejalarining loyihamini tayyorlaydi, ularni Jamoatchilik kengashida ko'rib chiqish uchun kiritadi va tasdiqlangan ish rejalarini bajarilishini ta'minlaydi;

d) Vazirlik faoliyatining samaradorligini oshirish bo'yicha taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishda hamda amalga oshirishda qatnashadi;

e) Jamoatchilik kengashining kun tartibiga kiritilgan masalalar yuzasidan tahliliy materiallar tayyorlaydi;

f) Jamoatchilik kengashining vakolatiga kiradigan masalalar bilan bog'liq murojaatlarni ko'rib chiqadi va natijalari bo'yicha tegishli hujjatlarni tayyorlaydi.

Jamoatchilik kengashining zimmasiga yuklangan vazifalar va funksiyalarga muvofiq boshqa vakolatlarni amalga oshiradi.

27. Jamoatchilik kengashi faoliyatining asosiy masalalari uning majlisida ko'rib chiqiladi. Jamoatchilik kengashining majlisi uning ish rejalarini asosida har chorakda kamida bir marta chaqiriladi.

Jamoatchilik kengashining raisi Jamoatchilik kengashi a'zolarining uchdan bir qismining yozma murojaati asosida uning navbatdan tashqari majlisini chaqirishi mumkin.

28. Jamoatchilik kengashining majlislariga boshqa davlat organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarining vakillari taklif etilishi mumkin.

29. Jamoatchilik kengashi majlisi kun tartibining loyihasi kotib tomonidan Jamoatchilik kengashi a'zolarining takliflari va jamoatchilik kengashi raisining topshirig'i asosida shakllantiriladi.

30. Jamoatchilik kengashining majlisini uning raisi olib boradi. Rais ishtirok eta olmagan holatlarda, majlisni uning o'rinnbosari olib boradi.

Jamoatchilik kengashining majlisida Vazir, uning o'rinnbosarlari va boshqa xodimlar ishtirok etishi mumkin.

31. Jamoatchilik kengashining majlisi, agar unda jamoatchilik kengashi a'zolarining kamida uchdan ikki qismi (kvorum) ishtirok etgan taqdirda vakolatlari hisoblanadi.

Majlisni o'tkazish uchun kvorum shakllanmagan taqdirda, jamoatchilik kengashining yangi majlisi o'tkaziladigan sana e'lon qilinadi.

32. Jamoatchilik kengashining qarori majlisda ishtirok etayotgan jamoatchilik kengashi a'zolarining oddiy ko'pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

33. Jamoatchilik kengashining har bir a'zosi qabul qilinayotgan qarorlar bo'yicha o'zining fikrini yozma shaklda ifodalashga haqli. Uning fikri jamoatchilik kengashi majlisining bayonnomasiga majburiy tartibda qo'shib qo'yiladi.

34. Jamoatchilik kengashining majlisida qabul qilingan qaror bayonnomaga bilan rasmiylashtiriladi. Jamoatchilik kengashi majlisining bayonnomasi kotib tomonidan imzolanadi, majlisga raislik qiluvchi tomonidan tasdiqlanadi va uch kun muddatda Vazirlikka, jamoatchilik kengashi a'zolariga va manfaatdor shaxslarga yuboriladi.

35. Jamoatchilik kengashining qarorini tezlik bilan qabul qilish zaruriyati tug'ilganda, uning raisi tashabbusi bilan qaror jamoatchilik kengashining a'zolari bilan kelishilgan holda so'rov yo'li bilan qabul qilinishi mumkin.

36. Vazirlik Jamoatchilik kengashining qabul qilgan qaroriga qo'shilmagan hollarda, jamoatchilik kengashining qarorini olgan kundan boshlab o'n kundan kechikmay unga asoslantirilgan e'tirozini yozma shaklda yuboradi.

37. Jamoatchilik kengashining kotibi kengash a'zolari ko'magida Jamoatchilik kengashi qarorlari ijrosining borishini o'rganadi va ko'rib chiqadi, zarur bo'lган hollarda, Jamoatchilik kengashining raisiga tegishli takliflar kiritadi.

38. Har yili Jamoatchilik kengashining faoliyati samaradorligi baholanadi va uning natijalari e'lon qilinadi;

39. Jamoatchilik kengashining faol a'zolari Vazirlikning budgetdan tashqari mablag'ri hisobidan moddiy rag'batlantirib boriladi.

4-bob. Yakuniy qoidalar

40. Jamoatchilik kengashining faoliyatini moddiy-texnik jihatdan ta'minlash Vazirlik tomonidan, shuningdek qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa manbalar hisobidan amalga oshiriladi.

41. Jamoatchilik kengashining faoliyati uning Nizomiga va O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga muvofiqligi Vazir tomonidan nazorat qilinadi.

42. Jamoatchilik kengashining qarorlari ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilinishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi
sport vazirining
2024-yil “___”-sentabrdagi
_____A/F-sonli buyrug‘iga
2-ilova

Sport vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining TARKIBI

T/r	F.I.O	-	Lavozimi
JAMOATCHILIK KENGASHI RAISI			
1.	TASHMATOV Sherzod Rixsibaevich	-	Milliy Olimpiya qo‘mitasi raisi o‘rinbosari, Taekvondo WT assotsiatsiyasi raisi
JAMOATCHILIK KENGASHI A’ZOLARI			
2.	MAXSITOV Baxodir Maxsitovich	-	O‘zbekiston Sport faxriylari Kengashi raisi
3.	TOJIYEV Bahodir Muhiddinovich	-	O‘zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi boshqarma boshlig‘i
4.	ERGASHEV Otabek Maxmudovich	-	O‘zbekiston Milliy Paralimpiya qo‘mitasi raisi o‘rinbosari
5.	RAFIEV Hamroqul Tolibovich	-	Jismoniy tarbiya va sport bo‘yicha mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti Samarqand filiali professori
6.	ESHTAYEV Anvar Kurganovich	-	O‘zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti professori
7.	KERIMOV Fikrat Azizovich	-	Jismoniy tarbiya va sport ilmiy tadqiqotlar instituti professori
8.	AGZAMOV Bilol Xilalovich	-	Respublika o‘smirlar oliy sport mahorati maktabi direktori
9.	ADISMAN Dmitriy Aleksandrovich	-	O‘zbekiston Maxsus Olimpiadasi raisi
10.	SAYDULLAYEV Mirjalol Rustam o‘g‘li	-	Milliy Olimpiya qo‘mitasi Olimpiya sport turlari faoliyatini koordinatsiya qilish departamenti direktori v.v.b
11.	<i>Lavozimiga ko‘ra</i>	-	O‘zbekiston karlar sport federatsiyasi raisi
12.	<i>Lavozimiga ko‘ra</i>	-	O‘zbekiston ko‘zi ojizlar sport federatsiyasi raisi
13.	IZZATOV Dilmurad Tursunbayevich	-	O‘zbekiston nodavlat notijorat tashkilotlari milliy assotsiatsiyasi bo‘linma boshlig‘i

- | | | |
|-------------------------------------|---|--|
| 14. | IZRAILOVA
Galina Vyacheslavona | - O‘zbekiston Gimnastika federatsiyasi ijrochi direktori |
| 15. | KARABAYEV
Murodjon
Abduraxmanovich | - O‘zbekiston futbol assotsiyasi Ijro nazorati va axborot tahlil bo‘limi boshlig‘i |
| 16. | MIRZAKULOV
Baxtiyor Choriyevich | - O‘zbekiston huquqni muhofaza qilish organlarining qo‘l jangi federatsiyasi raisi o‘rinbosari |
| 17. | MAMADALIYEV
Abror Akbarjonovich | - Respublika olimpiya va paralimpiya sport turlariga tayyorlash markazi direktori |
| JAMOATCHILIK KENGASHI KOTIBI | | |
| 18. | SALOMOV
Nurbek Normurodovich | Sport vazirligi Axborot xizmati rahbari |

Izoh: Jamoatchilik kengash a’zosi boshqa lavozimga o’tganda, uning o‘rniga tayinlangan xodim Jamoatchilik kengash a’zosi hisoblanadi. Jamoatchilik kengash a’zosi ma’lum sabablarga ko‘ra yig‘ilishlarda ishtirok eta olmasa, uning vazifasini bajaruvchi shaxs yig‘ilishlarda ishtirok etadi. Jamoatchilik kengash tarkibiga boshqa mas’ullar ham kiritilishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi
sport vazirining
2024-yil “_____”-sentabrdagi
_____A/F-sonli buyrug‘iga
3-ilova

**Sport vazirligi huzuridagi Jamoatchilik kengashining
ISH REJASI**

T/r	Chora-tadbir nomi	Amalga oshirish shakli	Ijro muddati	Mas’ul ijrochilar
1.	Sport vazirligi rahbariyati tomonidan tashkil etilayotgan sayyor qabullarda qatnashish hamda fuqarolardan kelib tushayotgan murojaatlarni ko‘rib chiqilishida ishtirok etish.	Amaliy chora-tadbirlar	doimiy	Jamoatchilik kengashi a’zolari
2.	Sport sohasida qabul qilinayotgan normativ-huquqiy hujjatlarda, qarorlarda, shuningdek, davlat, tarmoq va hududiy rivojlantirish dasturlarida jamoatchilik manfaatlari va jamoatchilik fikri hisobga olinishi, fuqarolarning, yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini, jamiyat manfaatlarini himoya qilish sohasida qonun hujjatlari talablari ijrosini ta’minlash, Sport vazirligi zimmasiga yuklangan hamda ijtimoiy va jamoatchilik manfaatlariga daxl qiluvchi vazifalar va funksiyalarni bajarish, davlat xizmatlarini ko‘rsatish, ijtimoiy sheriklik doirasida amalga oshiriladigan bitimlar, shartnomalar, loyihalar va dasturlarni ro‘yobga chiqarish bo‘yicha Sport vazirligi va uning mansabdor shaxslarining faoliyati ustidan jamoatchilik nazoratini amalga oshirish.	Amaliy chora-tadbirlar	doimiy	Jamoatchilik kengashi a’zolari

3.	O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror va farmoyishlari, huzurida o‘tkazilgan yig‘ilish bayonlarida Sport vazirligiga berilgan topshiriqlar ijrosini vazirlik markaziy apparatida hamda hududiy tuzilmalarda ijro etilishini monitoring qilib, mas’ullar faoliyatiga obyektiv baho berib borish.	Amaliy chora-tadbirlar	doimiy	Jamoatchilik kengashi a’zolari
4.	Sport vazirligi faoliyati bilan bog‘liq davlat dasturlari, chora-tadbirlar rejalarini va boshqa sohaga oid hujjatlar loyihalarini ishlab chiqishda qatnashish, shu jumladan korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida takliflar tayyorlash.	Chora-tadbirlar dasturi	belgilangan muddatlarda	Jamoatchilik kengashi a’zolari
5.	Sport vazirligi faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha olib borilgan ishlar ustidan monitoring va tahlil o‘tkazish, shuningdek, ularning natijalari bo‘yicha takliflar tayyorlash.	Amaliy chora-tadbirlar	doimiy	Jamoatchilik kengashi a’zolari
6.	Sport vazirligi Hay’ati va kengaytirilgan yig‘ilishlarda ishtirok etish, unda ko‘rilayotgan masalalardan kelib chiqib taklif va tavsiyalar kiritib borish.	Chora-tadbirlar dasturi	har chorakda	Jamoatchilik kengashi a’zolari
7.	Belgilangan vazifalarni amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik jamiyatining boshqa institutlari, shuningdek fuqarolar bilan ishslash va hamkorlik qilish tizimini yo‘lga qo‘yish.	Amaliy chora-tadbirlar	doimiy	Jamoatchilik kengashi a’zolari

8.	Sport vazirligiga nodavlat notijorat tashkilotlari va fuqarolik jamiyatining boshqa institutlaridan kelib tushgan sotsial va ijtimoiy ahamiyatga molik loyihalarni umumlashtirish va baholash.	Chora-tadbirlar dasturi	belgilangan muddatlarda	Jamoatchilik kengashi a'zolari
9.	Fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlарига дaxл qiluvchi eng muhim masalalar yuzasidan Sport vazirligining faoliyati haqidagi jamoatchilik fikrini tizimli monitoring qilish va har tomonlama tahlil qilish, sotsiologik so‘rovlar o‘tkazish, jumladan ularni axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda o‘tkazish.	Amaliy chora-tadbirlar	har chorakda	Jamoatchilik kengashi a'zolari
10.	Sport vazirligi faoliyatining ochiqligini ta'minlash bo‘yicha amalga oshirilayotgan tadbirlarni monitoring qilish, uning faoliyati to‘g‘risida bat afsil axborot olish imkoniyatlarini tahlil qilish, ularni yanada kengaytirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.	Amaliy chora-tadbirlar	doimiy	Jamoatchilik kengashi a'zolari
11.	Sport vazirligining rasmiy veb-saytida jamoatchilik kengashi faoliyati bilan bog‘liq ochiq e’lon qilinishi lozim bo‘lgan ma’lumotlarni joylashtirib borish hamda ularning har chorakda yangilanib borilishini ta’minlash.	Amaliy chora-tadbirlar	doimiy	Jamoatchilik kengashi a'zolari
12.	Sport vazirligi faoliyatini isloh qilishda fuqarolar ishtirok etishi uchun yaratilgan shart-sharoitlarni o‘rganish va ularni yaxshilash bo‘yicha takliflar ishlab chiqish.	Amaliy chora-tadbirlar	doimiy	Jamoatchilik kengashi a'zolari
13.	Sport vazirligi faoliyati bo‘yicha fuqarolar o‘rtasida o‘tkaziladigan tushuntirish ishlari va ma’naviy-ma’rifiy	Amaliy chora-tadbirlar	doimiy	Jamoatchilik kengashi a'zolari

	tadbirlarda ishtirok etish, ularning samaradorligini oshirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish.			
14.	Sport vazirligi xodimlari va ular oilalarining uy-joy, ijtimoiy-maishiy, xizmat shart-sharoitlarini, ularga malakali tibbiy yordam ko'rsatish sharoitlarini, shuningdek, ishdan bo'shatilgan yoki zaxiraga olingan xodimlarni ijtimoiy va kasbiy moslashtirish bo'yicha muammolarni kompleks tahlil qilish hamda tahlil yakunlari bo'yicha mazkur sharoitlarni yaxshilash yuzasidan takliflar kiritish.	Amaliy chora-tadbirlar	doimiy	Jamoatchilik kengashi a'zolari